


Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 86 413,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 28 141,8 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish 101,8 % ni tashkil etdi. Jumladan, 16 478,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 11 663,3 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan mos ravishda 103,3 % va 109,0 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 30,3 % ga o'sishini va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 20,7 % ga hamda tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 0,2 % ga, pasayishida ko'rishimiz mumkin.

## Yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so'mda)





### Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati


Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71 619,6 mlrd. soʻmni va oʻtgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 106,9 % ni tashkil etdi.

Oʻz navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish 22,4 % ga, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 14,2 % ga, metallurgiya sanoati 17,9 % ga, elektr uskunalar ishlab chiqarish 22,9 % ga, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 12,8 % ga oshganligida kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmogʻining ulushi 4,2 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali 23,4 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali 32,1 % ni, quyi texnologiyali 40,3 % ni tashkil etdi.

### Yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda



### **Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 11 430,9 mlrd.soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 99,8 % ni tashkil qildi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati 29,7 % ga oʻsgan boʻlsa, tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga 0,7 %, ga kamayganini kuzatish mumkin.

### **Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 2 696,3 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 79,3 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 20,7 % ga kamaygan.

### **Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 667,2 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 130,3 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 30,3 % ga oʻsgan.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini  
ishlab chiqarish hajmi**  
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

|  | mlrd. so'm      | o'sish<br>sur'ati,<br>foiz<br>hisobida |
|--|-----------------|--|
| <b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari<br/>bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab<br/>chiqarish hajmi</b>                                  | <b>86 413,9</b> | <b>105,0</b>                           |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash   | 11 430,9        | 99,8                                   |
| Xom neft va tabiiy gaz   | 1 0935,0        | 99,3                                   |
| Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari   | 414,1           | 129,7                                  |
| Tog'-kon sanoatida texnika xizmatlari  | 75,6            | 71,2                                   |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 71 619,6        | 106,9                                  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari  | 8 468,6         | 103,6                                  |
| Ichimliklar  | 8 755,1         | 101,0                                  |
| Tamaki mahsulotlari  | 284,1           | 112,0                                  |
| To'qimachilik mahsulotlari   | 3 643,7         | 99,8                                   |
| Kiyimlar   | 1 318,8         | 105,4                                  |
| Charm va charmdan mahsulotlar  | 125,6           | 134,2                                  |
| Yog'och hamda yog'och va po'kakdan yasalgan<br>buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to'qish uchur<br>materiallardan yasalgan buyumlar | 501,4           | 81,2                                   |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlari  | 1 780,6         | 104,7                                  |
| Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks<br>ettirish bo'yicha xizmatlar   | 1 483,1         | 104,6                                  |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari  | 280,8           | 42,5                                   |
| Kimyo mahsulotlari   | 2 760,2         | 122,4                                  |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika<br>preparatlari   | 1 754,7         | 84,2                                   |
| Rezina va plastmassa buyumlar  | 2 976,8         | 112,8                                  |
| Boshqa nometall mineral buyumlar   | 3 394,7         | 103,5                                  |
| Metallurgiya sanoati   | 12 171,6        | 117,9                                  |
| Mashina va asbob-uskunalaridan tashqari tayyor metall<br>buyumlar  | 3 132,9         | 114,2                                  |
| Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar  | 1 242,4         | 63,5                                   |


*davomi*

|   |          |       |
|---|----------|-------|
| Elektr uskunalar  | 8 163,2  | 122,9 |
| Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar                                      | 2 007,5  | 100,7 |
| Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar                                    | 3 271,3  | 100,5 |
| Boshqa transport vositalari va uskunalar  | 554,4    | 102,5 |
| Mebel   | 654,0    | 106,4 |
| Boshqa mahsulotlar  | 1 830,4  | 202,7 |
| Mashinalar va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish<br>bo'yicha xizmatlar                     | 1 063,8  | 82,4  |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni<br>konditsiyalash                              | 2 696,3  | 79,3  |
| Elektr, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlari ishlab<br>chiqarish va tarqatish       | 2 463,2  | 76,4  |
| Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish  | 233,1    | 97,2  |
| Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni<br>yig'ish va utilizatsiya qilish | 667,2    | 130,3 |
| Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash  | 387      | 110,9 |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya<br>qilish                     | 280,4    | 182,1 |
| Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish   | 28 141,8 | 101,8 |
| shu jumladan:   |          |       |
| oziq-ovqat tovarlari  | 14908,3  | 103,3 |
| nooziq-ovqat tovarlari  | 11663,3  | 109,0 |
| Aroq va sharob mahsulotlari   | 1570,2   | 118,0 |

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 37 410,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 43,3 % ni tashkil etdi, shu bilan birga davlat sektorida 18 998,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 22,0 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 67415,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 78,0 % ni tashkil etdi.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida 2023 -yil yanvar-sentabr oylarida (foiz hisobida)




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida 37 410,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 99,8 % ni, qayta ishlash sanoati 106,9 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 79,3 % ni, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar 130,3 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan foizda)

2022 -yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-sentabr



|  |  |
|--|--|
|  | Ishlab chiqaradigan sanoat   |
|  | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash                              |
|  | Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish |
|  | Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash   |

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo'yicha)

|   | O'lchov<br>birligi | 2023- yil<br>yanvar-sentabr | 2022- yil<br>yanvar-sentabrga<br>nisbatan % da |
|---|--------------------|-----------------------------|--|
| <b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>                     |                    |                             |  |
| Neft  | ming tn            | 500,5                       | 100,3  |
| Gaz kondensanti   | ming tn            | 486,1                       | 88,5   |
| Tabiiy gaz  | mln. kub.m         | 24 488,5                    | 91   |
| Chaqiq tosh   | tonna              | 513 719,6                   | 43,9   |
| <b>Qayta ishlash sanoati</b>  |                    |                             |  |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni   | tonna              | 104 747,0                   | 4,9 m  |
| Makaron mahsulotlari va shu kabi<br>xamirdan tayyorlangan mahsulotlar | tonna              | 3 996,9                     | 141,7  |



davomi

|  | O'lchov birligi | 2023- yil yanvar-sentabr | 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % da |
|--|-----------------|--------------------------|--|
| Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'iligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq   | tonna           | 7 984,1                  | 2,6 m.                                   |
| O'simlik yog'i (tozalangan)  | tonna           | 2,3                      | 0,5                                      |
| Margarin va spredlar   | tonna           | 2 805,4                  | 47,8                                     |
| Aroq - ming litr 100% spirt  | ming litr       | 10 969,8                 | 83,3                                     |
| Konyak spirti - ming litr 100% spirt   | ming litr       | 3 602,6                  | 81                                       |
| Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - ming litr 100% spirt   | ming litr       | 551,7                    | 103,4                                    |
| Uzum vinolari  | ming litr       | 3 713,2                  | 73,8                                     |
| Pivo   | mln. dona       | 76 886,3                 | 116,9                                    |
| Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan  | mln.dona        | 1 485,9                  | 95,2                                     |
| Paxtadan yigirilgan ip   | tonna           | 25 834,5                 | 95,5                                     |
| Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrdan ko'p bo'lmagan, oqartirilmagan ip gazlamalari                                   | ming kv.m       | 14,1                     | -  |
| Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar  | tonna           | 14 108,6                 | 114                                      |
| Gilam va gilamlar  | ming kv.m       | 697,3                    | 99,3                                     |
| Paketlar va paketlarni qadoqlash   | tonna           | 2 099,2                  | 169,2                                    |
| Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar   | ming dona       | 828,2                    | 28,2                                     |
| Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar   | ming dona       | 347,3                    | 15,9                                     |
| Boshqa ish kiyimlari - ming so'm   | ming so'm       | 16 578,0                 |  |
| Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofrirovka qilish uchun qog'oz   | tonna           | 984,0                    | 121,8                                    |
| Daftarlar  | tonna           | 213,8                    | 180,3                                    |
| Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar  | tonna           | 77 192,0                 | 7,3 m                                    |
| Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiyalar, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarini bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar | ming so'm       | 64 035 264,0             | 17,1                                     |



*davomi*

|  | O'lchov birligi | 2023- yil yanvar-sentabr | 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % da |
|--|-----------------|--------------------------|--|
| Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar   | ming so'm       | 25 391 769,0             | 76                                       |
| Bosib chiqarilgan pochta va gerbli markalari, titul hujjatlari, mikroprossesor kartochkalari, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar va shu kabilarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar                                       | ming so'm       | 10 526 449,0             | 129,3                                    |
| Haftada to'rt martadan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar  | ming so'm       | 1 526 923,0              | 134,3                                    |
| Yog'lash uchun ishlatiladigan moylar   | ming tonna      | 3,3                      | 95,3                                     |
| Suyultirilgan propan va butan  | ming tonna      | 409,5                    | 97,4                                     |
| Texnik oltingugurt   | tonna           | 176 552,0                | 101,9                                    |
| Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar   | tonna           | 87,0                     | 108,8                                    |
| Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida   | tonna           | 13 246,0                 | 111,2                                    |
| Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar  | tonna           | 6 097,0                  | 104,1                                    |
| Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti   | ming litr       | 7 782,0                  | 78,3                                     |
| Birlamchi formalardagi polipropilen  | tonna           | 9 071,1                  | 110,6                                    |
| Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalariga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar | tonna           | 136,5                    | 84,7                                     |
| Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar   | tonna           | 13 457,1                 | 77,3                                     |
| Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan medikamentlar  | tonna           | 1 787,4                  | 107,7                                    |
| Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar  | tonna           | 346 419,6                | 97,2                                     |
| Butilkalar   | ming dona       | 211 282,2                | 69,6                                     |



davomi

|   | O'lchov birligi | 2023- yil yanvar-sentabr | 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % da |
|---|-----------------|--------------------------|--|
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar  | tonna           | 92 677,0                 | 24,3                                     |
| Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o'ralgan chiviqlar | tonna           | 76 407,3                 | 78,9                                     |
| Po'latdan choksiz neft va gaz   | tonna           | 25 861,2                 | 96,3                                     |
| Mis sim   | tonna           | 28 979,2                 | 125,6                                    |
| Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar   | tonna           | 1 109,6                  | 3,2 m                                    |
| Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar  | tonna           | 5,3                      | 114,8                                    |
| Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari   | tonna           | 7 071,9                  | 109,1                                    |
| Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblari   | tonna           | 5,2                      | 11,6 m                                   |
| 1 kV dan ortiq bo'lmagan kuchlanish uchun avtomatik o'chiruvchilar  | tonna           | 1,4                      | 6,4                                      |
| Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagan elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar                                    | tonna           | 50,1                     | 148,4                                    |
| Izolyatsiya qilingan o'rash simlari   | tonna           | 1 374,9                  | 95,2                                     |
| Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli) boshqa elektr toki o'tkazgichlari  | tonna           | 8 594,2                  | 134,8                                    |
| Sovutkich va muzlatkichlar -  | dona            | 577 902,0                | 102,1                                    |
| Traktorlar  | dona            | 10,0                     | 14,9                                     |
| Avtomobil dvigateli   | dona            | 176 030,0                | 104,8                                    |
| Ixtisoslashgan yengil avtomobillar - dona   | dona            | 419,0                    | -  |

*davomi*

|  | O'lchov birligi | 2023- yil yanvar-sentabr | 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % da |
|--|-----------------|--------------------------|--|
|--|-----------------|--------------------------|--|

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


|  |                     |           |       |
|--|---------------------|-----------|-------|
| Elektroyenergiya                               | <i>mln.kVt soat</i> | 2 926,6   | 3,7 m |
| Issiqlik energiyasi                            | <i>ming Gkal</i>    | 7 513,3   | 88,8  |
| Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar | <i>ming so'm</i>    | 692 387,0 | 108,7 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

|  |                  |               |       |
|--|------------------|---------------|-------|
| Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar                                       | <i>ming so'm</i> | 247 688 489,0 | 123,8 |
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar                             | <i>ming so'm</i> | 139 047 757,0 | 113,7 |
| Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar  | <i>ming so'm</i> | 101 844 570,9 | 110,9 |
| Plastmass chiqindilar  | <i>tonna</i>     | 1 430,1       | 132,4 |
| Xavfsiz metall chiqindilar   | <i>tonna</i>     | 2 328,4       | 146,9 |
| Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar                 | <i>tonna</i>     | 29 206,0      | 62,4  |
| Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar  | <i>tonna</i>     | 203,3         | 78,9  |
| Saralangan metall va metall bo'lmagan materiallarni qayta ishlash (qayta tiklash) bo'yicha xizmatlar - ming so'm | <i>ming so'm</i> | 916 793,0     | -     |

## Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 23,0%), Sergeli tumani (12,5%), Bektemir tumani (8,4 %), Chilonzor tumani (8,0 %), Olmazor tumani (7,8%), Uchtepa (6,8%) Yangihayot tumani (6,4 %), Mirobod (6,1%) hissasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Yakkasaroy tumani (5,8%), Mirzo Ulug'bek tumani (5,5%), Shayhontohur tumani (5,5%), Yunusobod (4,2%), tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda***(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)*


Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 86 413,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 28 916,1 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 28 141,8 mlrd. so'mni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 9 416,9 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,7 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan (1,8 % ga) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 32,6 % ni tashil etdi.

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 14 908,3 mlrd. so'mga yetkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 53,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 11 663,3 mlrd. so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 41,4 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 1 570,2 mlrd. so'm hisoblanib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

### Hududlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)






**Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, foizda**  
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)



**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning o'sish sur'atlari, foizda** (2023- yil yanvar-sentabr oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta fizik hajmi indeksi Uchtepa tumani (156,7 %), Bektemir tumani (136,7%), Yunusobod tumani (117,0 %), Mirzo Ulug'bek tumani (107,9 %), Sergeli tumani (103,1 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Shayxontohur tumani (83,5%) va Chilonzor tumani (71,2 %), Mirobod (60,4 %) tumanlarida kuzatilgan.


## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 35,9 % ni tashkil etgan.

## Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda (yanvar-sentabr)

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (62,1 %), Yunusobod (59,5 %) Yakkasaroy (56,2 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Yangiheyot (25,6 %) Sirg'ali (24,7 %) va Yashnobod (16,4 %) tumanlarida kuzatildi.

## 2023-yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda






## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 38 647,1 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 32,1 % ni tashkil qildi.

Qoʻshma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foizda 2023- yil yanvar-sentabr oylarida




## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,7 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatayotgan boʻlib, ulardan 1 410 ta korxona (jami faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarning 12,1 %) Olmazor tumaniga, 1 364 ta korxona (11,7 %) Chilonzor tumaniga, 1 263 ta korxona (10,8 %) Uchtepa tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi.




## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil 1-oktabr holatiga)



## Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)



2023-yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida 1 134 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 11,4 % Chilonzor, 11,0 % Mirzo Ulug'bek, 10,8 % Olmazor, 10,1% Yunusobod tumanlari yuqori ulushga ega.




**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**  
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

|              | Loyihalar<br>soni,<br>birlikda | Ishlab<br>chiqarish<br>hajmi, mln.<br>so'm | Eksportga sotilgan<br>mahsulot hajmi,<br>ming AQSh<br>dollari | Yangi tashkil<br>qilingan ish<br>o'rinlari soni,<br>birlikda |
|--------------|--------------------------------|--|---|--|
| <b>Jami:</b> | <b>313</b>                     | <b>13 390 775,0</b>                        | <b>160 739,0</b>  | <b>1 510</b>   |

*shundan;*

|                |    |             |          |     |
|----------------|----|-------------|----------|-----|
| Uchtepa        | 19 | 139 065,0   | 777,0    | 271 |
| Bektemir       | 48 | 476 429,0   | 12 508,0 | 21  |
| Yunusobod      | 8  | 170 775,0   | 49,0     | 157 |
| Mirzo Ulug'bek | 9  | 257 627,0   | 543,0    | 51  |
| Mirobod        | 29 | 44 728,0    | 908,0    | 40  |
| Shayxontohur   | 13 | 978 086,0   | 1 059,0  | -   |
| Olmazor        | 54 | 845 632,0   | 6 028,0  | 385 |
| Sergeli        | 42 | 3 956 422,0 | 4 648,0  | 164 |
| Yakkasaroy     | 25 | 440 122,0   | 778,0    | 22  |
| Yashnobod      | 20 | 1 903 384,0 | 45 423,0 | 63  |
| Yangihayot     | 17 | 317 849,0   | 3 050,0  | 29  |
| Chilonzor      | 29 | 3 860 656,0 | 84 968,0 | 307 |

## Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda 2023- yil yanvar-sentabr oylarida



### Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).